

Kasbim Faxrim.

Insonlar dunyoga kelar ekanlar rivojlanish davridanoq har hil kasblarga qiziqish muhabbat uygondi. Albatta bolalik davrimizdanoq uchuvchi, kosmonavt, shifokor yana bir necha kasblarga qiziqamiz lekin kata bo'lganimiz sari biz teranroq fikirlashni boshlaymiz. Kichkinaligimda men ham shifokor, aktisa, qo'shiqchi bo'lgim kelgan. Lekin katta hayotga qadam qo'yar ekanman yanada chuqurroq o'ylashni fikrlashni boshlaganman. Meni kasb tanlashimda onam yaqndan yordam bergenlar. Aynan Pedagog bo'lishimni ham onam juda hohlaganlar, maktab davrlaridanoq oyim bilan birgalikda yoz oylari jazzi bolajonlarni maktabga tayyorlar edik. Ular bir harf o'rgangan chog'lari kozlaridagi quvonchni ko'rish menga juda yoqar edi. U paytlar men hattoki o'qituvchi bo'laman deb o'ylamas edim ham ammo mana oradan bir necha yil o'tib universitetga Boshlang'ich ta'limga yo'naliishiga o'qishga topshirdim. 2022-yil juda omadli keldi desam hech adashmagan bo'laman yoshlik davrlarimdanoq Xalqaro Universitetlarga qiziqishim katta bo'lgan shu bois ham 2022 yilda Xalqaro Nordik Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'naliishiga talabalikka qabul qilindim. Universitetga borar ekanman yuragimda qo'rquv bor edi chunki men bu kasbni eplay olamanmi deb oylab qoldim. Lekin menga bu kasbni sharafini universitetimiz ustozlari tushuntirib berishdi. Agar bir shifokor xato qilib qo'ysa 1 bemor aziyat chekadi, agar shu xatoni o'qituvchi qilsa u xato sababli butun millat aziyat chekadi. Hayotimizda tanlagen kasbimiz bizning kimligimizni belgilaydi va bizning jamiyatdagi o'rnimizni aniqlaydi. Har bir kishi o'z yo'lida muvaffaqiyatlarga erishish uchun kasb tanlaydi. Men tanlagen kasbim – Pedagog yaniy Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – mening shaxsiyatimning asosiy qismidir va men uni faxr bilan aytaolaman. Bu kasbni tanlashimdagি asosiy sabab, bu sohada o'zimni ifoda eta olishim va jamiyatga ijobiy hissa qo'sha olishimdir. Har kuni yangi bilimlar va ko'nikmalar orttirib, men o'z ustuvor vazifalarimni bajarishda davom etaman. Bu jarayon meni nafaqat kasbiy, balki shaxsiy jihatdan ham rivojlantiradi. Kasbim mening hayotimning ajralmas qismiga aylangan. U meni intilishlarga undaydi, yangiliklarni o'rganishga chorlaydi va ijodkorlikka ilhomlantiradi. Har kuni yangi qiyinchiliklar va yutuqlar menga o'z kasbimning noyobligini his etishga yordam beradi. Shuningdek, kasbim orqali men jamiyatdagi muhim muammolarni hal qilishda yordam bera olaman. Bu men uchun katta faxrlanish hissi tug'diradi. Men ishlayotgan har bir kun, men o'zimning bilim va ko'nikmalarim orqali dunyonni yaxshiroq qilishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'laman. Xulosa qilib aytganda, men tanlagen kasbim mening faxrimdir. U menga nafaqat moddiy ta'minot, balki ma'naviy qoniqish ham beradi. Men o'z kasbim orqali o'zimni rivojlantirishda davom etaman va jamiyatimizning yaxshilanishi uchun hissa qo'shishga intilaman.